



OILA MUSTAHKAMLIGIDA FILANTROPIYANI O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19103847>

Toshpo'latov Iqboljon Baxtiyorovich

Farg'ona viloyat pedagogik mahorat markazi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaning asosiy jihatlari bo'lgan jamiyat taraqqiyotida mustaxkam oilani o'rni, Sharq mutafakkirlarining oila to'g'risida fikrlari, erkak va ayol kishining oiladagi vazifalari to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek inson zaif holda dunyoga kelishi bu holda insonga kuch, yordam, ong, aql -zakovat kerak bo'ladi. Buni yillar davomida tarbiya orqali olinishi va oilada baxtimiz mukammal bo'lishi uchun atrofimizdagi odamlarning xayrixohligi va yordamiga muhtojligi yoritilgan, bu esa filantropiyani asosi xisoblanadi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные аспекты семьи, роль крепкой семьи в развитии общества, взгляды восточных мыслителей на семью, роли мужчин и женщин в семье. Также обсуждается тот факт, что человек рождается слабым, и в этом случае ему необходимы сила, помощь, ум, интеллект. Это приобретается годами воспитания, а также потребность в доброй воле и помощи окружающих для достижения идеального семейного счастья, что является основой филантропии.

Abstract. This article examines the fundamental aspects of family, the role of a strong family in the development of society, the views of Eastern thinkers on family, and the roles of men and women within the family. It also discusses the fact that humans are born weak, requiring strength, assistance, intelligence, and intellect. These qualities are acquired through years of upbringing, as well as the need for goodwill and the help of others to achieve ideal family happiness, which is the foundation of philanthropy.

Kalit so'zlar: inson, jamiyat, oila-kuch, flantropiya, odamoxunlik, do'stlik, aql-zakovat, erkak, ayol, tarbiya, baxt, mehr, muhabbat.

Ключевые слова: человек, общество, семейная власть, филантропия, дружба, интеллект, мужчина, женщина, воспитание, счастье, доброта, любовь.

Key words: person, society, family power, philanthropy, friendship, intelligence, man, woman, education, happiness, kindness, love.

Oila jamiyatda ma'lum bir vazifalarni bajaruvchi ijtimoiy tizim sifatida faoliyat olib boradi. Ijtimoiy hayot taraqqiylashayotgan bir vaqtda oilaning bajaradigan vazifalari ham

yanada kengayib bormoqda. Bugungi kunda jamiyatda oila muhim maskandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa,



baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolada flantropik faoliyatning asosini tashki etuvchi ma'naviy mezon va qarashlar, yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, do'stlik va mehr-muhabbat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir"³⁵.

Tadqiqotchilar fikricha, "...do'stlik va mehr-muhabbatning filantropiya (insonparvarlik, insonni sevish) funktsiyasi ob'ektlarni farqlashni taqozo etadi. Do'stlik va mehr-muhabbat, ob'ektiga ko'ra, insonga, narsalarga, zaminga, kasb-korga, Vatanga, pulga, huzur-halovatga, ijodga qaratilgan bo'lishi mumkin. Lekin ular ichida insonga qaratilgan do'stlik va mehr-muhabbat asosiy o'rinda turadi, zero u jamiyatning rivojlanish qonuniyatini belgilab beradi"³⁶. Binobarin do'stlik va mehr-muhabbat birinchi o'rinda oilada shakllanadi.

Oila-mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila-jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk

tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibрати, ona mehri orqali amalga oshadi. Oiladagi sog'lom muhit-sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir.

Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Kelajakdagi yo'li ravon bo'lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Agar ota-ona vaqtida farzandiga e'tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg'urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O'sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo'lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e'tiborli bo'lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo'lmaslik lozim.

Farzandlar kelajagini ta'minlash - har bir mas'uliyatli ota-onaning ustuvor vazifalaridan biridir. Ta'lim, rivojlanish va jamiyatda o'z o'rnini topish kabi masalalar nafaqat e'tibor, balki to'g'ri moliyaviy yondashuvni ham talab qiladi. Bugun tobora ko'proq ota-onalar bolalariga mustahkam moddiy asos yaratish haqida o'ylamoqda, bu esa ularning katta hayotga ishonchli qadam qo'yishlariga yordam beradi.

³⁵ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 19-yanvar kuni xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi.

³⁶ Султонова Нодира Эргашовна. Дўстлик ва меҳр-муҳаббатнинг ижтимоий-антропологик хусусиятлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. 2019. – Б 12.



Bolalar kapitali - bu uzoq muddatli g'amxo'rlikning samarali vositalaridan biridir. Bolalik davridayoq yaratilgan sarmoya portfeli keyinchalik ta'lim olish, shaxsiy biznesni yo'lga qo'yish, uy-joy xarid qilish yoki boshqa muhim maqsadlarni moliyalashtirishda asqatadi. Oldindan mablag' kiritish orqali ota-onalar farzandlari uchun mustaqillik va erkin tanlov imkoniyatini yaratadilar. Bunday investitsiyalar jamg'armalarni inflyatsiyadan himoya qiladi. Shuningdek, bosqichma-bosqich kelajakdagi maqsadlar uchun kapital shakllantiradi va farzandingiz hayotidagi muhim bosqichlarga-universitetga kirish, uy xarid qilish yoki biznes ochishga oldindan tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi. Bundan tashqari, agar farzandingiz bolalikdan investitsiya jarayoniga jalb qilinsa, u moliyaviy savodxonlik, mas'uliyat va pulga ongli munosabatni erta yoshdan o'rganadi. Shu bilan birga, investitsiya uchun ishonchli va tushunarli vositani tanlash juda muhim - u shaffof, axloqiy me'yorlarga va qonunchilik talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Agar siz sarmoyani oldindan boshlagan bo'lsangiz, hatto kichik mablag'lar ham vaqt o'tishi bilan katta kapitalga aylanishi mumkin. Buning siri - foizlarning foizga ishlashi: investitsiya keltirgan daromad ham asosiy sarmoya bilan birgalikda ishlashda davom etadi. Investitsiya muddati qancha uzoq bo'lsa, yakuniy miqdor shuncha ko'p bo'ladi. Bu yondashuv, ayniqsa, uzoq muddatli maqsadlar, mustaxkam oila poydevori xususan, bolalar kapitalini

shakllantirishda nihoyatda samarali bo'ladi.

Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejizga aytilmagan. Har bir ota-ona o'z farzandi uchun ko'zgudir. Ularning muomala va munosabati, o'zini tutishi farzandiga bo'lgan e'tibori alohida ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: "Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bolaga ilm-u adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir. O'g'ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir". Bu fikrlar orqali qattiqqo'llik va shafqatning me'yorda bo'lishini bilish mumkin.

Mirzo Ulug'bekning oila muhitini yaxshilash, sog'lom tarbiya berish haqida quyidagi qarashlari mavjud. Bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, ya'ni oila muhim o'rin egallaydi. Oilada ota-onalar bilimli bo'lishini, tarbiya berishda ota-onaning o'zi o'rnak va hayotiy misol bo'lishiga farzandi guvoh bo'lishi eng ko'p samara berishi ta'kidlangan.

Jadid adabiyotining namoyandasi Abdurauf Fitrat jamiyat rivoji va yurt ravnaqi farovonligida oilaning o'rni xususida fikr yuritib, "Oila" asarida shunday mulohazalar bildiradi: "Har bir millatning saodati va



izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”.

Sharq mutafakkirlari yetuk insonni yetishtirish uchun oilada beriladigan tarbiya naqadar zarurligi haqida so‘z yuritganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Sa‘diyning “Guliston”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati muhim sanaladi. Farzandning tarbiyasini faqat onaga tashlab qo‘yish to‘g‘ri emas. Bu borada otaning ham o‘rni beqiyosdir. Hayotda og‘il ko‘proq otaga qarab ergashadi. Otaning samimiyligi, hurmati va yaxshiligi farzandga kuch-quvvat bo‘ladi. Oilaning asosiy tirgagi bo‘lgan ota hayotning mashaqqatlarini kechib, o‘zining bukulmas irodasi,

adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshlilik bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota oilada o‘z farzandlariga yurish-turishda, nutq odobida, o‘zaro muomala madaniyatida to‘g‘rilik, halollik, samimiyluk yuzasidan namuna bo‘la oladi. Oilada samimiyluk, bir-biriga bo‘lgan mehr va hurmat yuqori bo‘lsa, farzandning o‘zib ulg‘ayishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Alisher Navoiy tarbiyaning yana bir ko‘rinishi ota-onani hurmat qilish ekanligini farzandlarga uqtiradi: ”Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi. Ikki dunyong obod bo‘lishini istasang, shu ikki odam roziligini ol. Tun-u kuningga nur berib turganning birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh”.

Oilada ma‘naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Oila sog‘lom, yetuk farzandni ulg‘aytirib kamol toptirishda mas‘uldir. Farzandni sog‘lom, yetuk, bilimli, shijoatli qilib voyaga yetkazish oilaga, ota-onaga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat‘iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2016.
4. Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad”. Toshkent. 2016.
5. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (B.To‘xliyev nashrga tayyorlagan) T. Yulduzcha, 1990.
6. Alisher Navoiy “Hayrat ul Abror” 20 jildlik. J. 14. –Toshkent: Fan, 1998.